

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
PhD.03/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ALIMOVA DILDORA DAMIROVNA

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING RESURS
SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical Sciences**

Alimova Dildora Damirovna

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish..... 3

Алимова Дилдора Дамировна

«Повышение эффективности управления ресурсным потенциалом предприятий сферы услуг»..... 28

Alimova Dildora Damirovna

Improving the efficiency of resource management of service sector enterprises..... 54

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.30/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ALIMOVA DILDORA DAMIROVNA

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING RESURS SALOHIYATINI
BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1251raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xayitov Sherbek Naimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Navoiy davlat konchilik instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30/30.09.2022.I.101.04 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2024-yil « ____ » _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99899) 704-79-72; faks: (+99865) 223-78-84; e-mail: info@bmti.uz

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99899) 704-79-72; faks: (+99865) 223-78-84; e-mail: info@bmti.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.B.Nizamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.N.Xayitov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash kotibi, i.f.d., dotsent

B.F.Azimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va aholi hayot sifatini oshirishda bevosita muhim ahamiyatga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitining keskinlashib borishi sharoitida sohada resurslarni samarali boshqarishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jahonda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalari tobora yuqori texnologiyalarga asoalangan holda jadal rivojlanib bormoqda. "AQSh iqtisodiyotida jami ish o'rinlarining 80,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelib, faoliyat yuritayotgan xodimlarning 85,0 foizi yuqori bilim va malakaga ega mutaxassislar hisoblanadi"¹. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohalari raqobatbardosh-ligini oshirishda korxonalar resurs salohiyatini samarali boshqarish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda globallashuv va raqobatning kuchayib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish borasidagi tadqiqot-larda resurslar ahamiyatiga ko'ra korxonalar resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada xizmat ko'rsatish korxonalari resurs salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari va zaxiralarini aniqlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonini boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish, korxonalar faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi muammolarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini sifatli va barqaror rivojlantirish sharoitida resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ... 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifa-larni hal etishda xizmat ko'rsatish korxonalari resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlagan holda ulardan maqsadli foydalanish yo'llarini asoslash, korxonalar resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonini boshqarishning samarali usullarini asoslash kabi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, 2021 yil 30 sentabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi 246-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy samaradorlik masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar³, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, M.Porter, Y.A.Shumpeter va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlarini xorijlik olimlar⁴, jumladan: T.D.Burmenko, V.K.Romanovich, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova, Ye.Ye.Rumyanseva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan⁵ M.E.Po‘latov, M.Q.Pardaev, D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzaev, J.I.Isroilov, A.Q.G‘apparov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Shuningdek, iqtisodiy resurslar, mehnat resurslarini shakllanishi, resurslarni boshqarish samaradorligi kabi muammolar Q.X.Abdurahmonov, B.X.Umurzakov, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G‘afurov, A.R.Axmedjanov⁶ va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labour markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Портер М.Ю. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Калининой. – М.: «Альпина Паблишер», 2008 (2-е изд. – 2008). – 720 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

⁴ Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия: 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. - XII, 882 с. + DVD-R, - С. 717-718.

⁵ Пардаев М.К., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув кўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Зайналлов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Утемуратова Г.Х. Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шериклиги ривожланишининг методолгик асосларини такомиллаштириш // Дисс. икт. фан. док. (DSc). – Нукус: 2023.

⁶ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: «FAN», 2019. – 592 б.; Шодмонов Ш.Ш, Гафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2010. 585 б.; Умурзаков Б.Х. ва б. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва таксимланишининг ҳудудий хусусиятлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS» 2017. – 188 б.; Ахмеджанов А.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. Дисс. Иқтисодиёт

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko'rsatish sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“salohiyat” va “resurs salohiyati” kategoriyalarining iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarini resurs salohiyatining shakllanishi va tarkibiy tuzilishini tasniflash;

xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini baholash usullarini aniqlash;

Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holatini tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholash usullari tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari va zaxiralarini aniqlash;

Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish istiqbollari va asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida Buxoro viloyati xizmat ko'rsatish sohalari va korxonalarini faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish korxonalarini resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini integral baholashga yondashuv resurslar qaytimi, moliyaviy holat va umumfaoliyat natijadorligi hamda resurs salohiyatini alohida tasnifiy belgilari bo'yicha guruhlagan holda baholashga ko'ra takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish sohalari korxonalari "resurs salohiyati"ga yondashuv kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan resurslar va qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish va foyda olish qobiliyatiga ko'ra takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasi resurslarini boshqarish tizimi, jumladan mehnat unumdorligini oshishi, korxonada ishchi-xodimlarining kasb-malaka tarkibini shakllanishi hamda mehnatni motivatsiyalash va rag'batlantirish dasturini ishlab chiqishga ko'ra modellashtirilib, shu asosda xarajatlarni minimallashtirish imkonini kengaytirish asoslangan;

Buxoro viloyatida xizmatlar bozori barqaror rivojlanishi va jami xizmatlar hajmini oshirishning 2029-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida "salohiyat" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va resurs salohiyatini optimallashtirish bo'yicha korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash algoritmini joriy etishning blok-sxema modeli ishlab chiqilgan;

personalni boshqarish tizimini modernizatsiyalashga qo'shimcha xarajatlardan, ish haqi jamg'armasining o'rtacha miqdori, xizmatlar mehnat sig'imi va tushum hajmining o'zgarishi bilan bog'liq personalga xarajatlarning umumiy o'zgarish zanjirli almashtirish orqali omilli tahlil qilish usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari va zaxiralarini aniqlash, soha korxonalari resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish yo'nalishlarining ilmiy apparatini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish korxonalari resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish, boshqarishning samarali usullarini joriy etishga oid me'yoriy hujjatlar va dasturlarni tayyorlash, kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda "Iqtisodiyot nazariyasi", "Menejment", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti", fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish,

darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma-larni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini integral baholashga yondashuv resurslar qaytimi, moliyaviy holat va umumfaoliyat natijadorligi hamda resurs salohiyatini alohida tasnifiy belgilari bo'yicha guruhlagan holda baholashga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19 dekabrda 04-10-33-18003-son ma'lumotnomasi). Taklif xizmat ko'rsatish korxonasida resurs salohiyatini ob'ektiv va kompleks baholash aniqligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish sohalari korxonalari "resurs salohiyati"ga yondashuv kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan resurslar va qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish va foyda olish qobiliyatiga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini resurslar ta'minloviga ko'ra tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19 dekabrda 04-10-33-18003-son ma'lumotnomasi). Taklif resurslarning sifat tavsifiga egaligini hamda istiqbolda jalb etiladigan resurslar miqdori va sifatini hamda qo'shimcha qiymat yaratishda resurs omili ahamiyatini e'tiborga olgan holda xizmat ko'rsatish sifatini joriy va istiqbol davrda oshirishga muayyan darajada uslubiy jihatdan xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasi resurslarini boshqarish tizimi, jumladan mehnat unumdorligini oshishi, korxonada ishchi-xodimlarining kasb-malaka tarkibini shakllanishi hamda mehnatni motivatsiyalash va rag'batlantirish dasturini ishlab chiqishga ko'ra modellashtirilib, shu asosda xarajatlarni minimallashtirish imkonini kengaytirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19 dekabrda 04-10-33-18003-son ma'lumotnomasi). Taklif xizmat ko'rsatish korxonalarida biznes jarayonlarini modellashtirish asosida resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish tizimini optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Buxoro viloyatida xizmatlar bozori barqaror rivojlanishi va jami xizmatlar hajmini oshirishning 2029-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19 dekabrda 04-10-33-18003-son ma'lumotnomasi). Taklif Buxoro viloyati bo'yicha prognoz davrida jami xizmatlar hajmini 3,8 %ga va xizmat ko'rsatish sohasida o'rtacha mehnat unumdorligini 1,5 %ga oshishi imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 153 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini resurs salohiyatini boshqarishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida “salohiyat” va “resurs salohiyati” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ishlab chiqilib, xizmat ko'rsatish korxonalarini resurs salohiyatining shakllanishi va tarkibiy tuzilishi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, soha korxonalarining resurs salohiyatini baholash usullari ilmiy-uslubiy jihatdan yoritib berilgan.


Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali rivojlantirish asosida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining jadal rivojlanishi eng avvalo korxonalarining resurs salohiyatini oshirishga bog'liq. Mamlakatimiz iqtisodiyoti sohasida o'ziga xos siyosati mavjud bo'lib, mazkur siyosat zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va unga erishish omillari sifatida mavjud resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarishga nisbatan samarali hisoblanadi, chunki xizmat ko'rsatish sohasida dastlabki faoliyatni tashkil etish kamroq sarmoyani zarurat etgan holda moliyaviy mablag'larning aylanish tezligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini yetarli darajadagi resurslar ta'minoti boshqaruv jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. “Resurs” va “resurs salohiyati” tushunchalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari shakllanishining muhim kategoriyalaridan biridir. Tadqiqotchil olimlar tomonidan resurslarga iqtisodiy termin sifatida korxonalar faoliyatining turli tomonlarini hisobga olgan holda ko'plab

ta'riflar berilgan va ilmiy yondashuvlar asoslangan. Ushbu yondashuvlarga asoslangan holda, muallif tomonidan "salohiyat" va "resurs salohiyati" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati yoritib berildi.

Salohiyat – bu foydalanish jarayonida iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradigan mablag'lar, zahiralar, imkoniyatlar majmuidir. **Resurs salohiyati** – bu korxonada foydalanmayotgan, ammo tashqi muhitda bo'lgan va kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan mavjud resurslar va aholining tovarlar (xizmatlar)ga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish hamda qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish va foyda olish uchun resurslardan, shu jumladan moddiy (moddiy) va nomoddiy resurslardan foydalanish qobiliyatidir.

Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatining tarkibini moddiy va nomoddiy turlarga ajratish mumkin. Resurs salohiyatining tarkibi va tuzilishining uni baholash metodologiyasini yaratish uchun asos hisoblanadi. Umuman olganda xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini har tomonlama samarali baholash muammosi ochiqlicha qolmoqda, garchi hozirgi vaqtda korxonada resurs salohiyatining tarkibiy qismlarini baholash yetarlicha yoritib berilgan bo'lsada.




1-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonasi resurslardan samarali foydalanishga konseptual yondashuv⁷

Tadqiqotchi resurslardan samarali foydalanish konsepsiyasiga asoslangan korxonada rivojlanishini strategik boshqarishning uslubiy yondashuvlari ularning mohiyatini ochib beradi va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari, iqtisodiy barqarorlik va barqarorlik tamoyillari hamda o'zaro hamkorlikning hududiy shakllari bilan uyg'unlikni ta'minlaydi (1-rasm). Ushbu rasmda keltirilgan

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

resurslardan samarali foydalanishga konseptual yondashuvni amalga oshirish mexanizmi sifatida uslubiy yordam uning har bir tarkibiy elementini, ya'ni resurslarning mohiyati va ularning turlarini aniqlash, resurs bilan ta'minlash, resurs salohiyatini baholash, resurslarni boshqarish, resurslarning o'zaro ta'sirini o'rganish, korxonada resurslarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish samaradorligini oshirish kabilarni hisobga olinishi kerak.

Xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik faoliyatida ishtirok etish darajasiga qarab, resurs salohiyatining turli elementlari turli xil rolga ega bo'ladi, shuning uchun resurs salohiyati tarkibini o'rganishda uning tarkibidagi faol va passiv qismlarni ajratish kerak. Faol qismiga xo'jalik faoliyatida ishtirok etuvchi va uning ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etuvchi resurslar, resurs salohiyatining passiv qismiga mavjud bo'lgan, lekin xo'jalik muomalasiga jalb etilmagan resurslar kiradi.



2-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonasining resurs salohiyati tarkibi⁸

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning keying bosqichida xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik subektlari o'rtasidagi bozor raqobati sharoitida ularning resurs imkoniyatlarini boshqarishning optimal strategiyasini tanlash muhim zarurat bo'lib hisoblanadi. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish faqatgina korxonaga tegishli bo'lgan turli xil iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish sharoitida amalga oshishi mumkin. Xizmat ko'rsatish korxonasining resurs salohiyati murakkab, ko'p qirrali, ko'p darajali kategoriyadir. Shuning uchun uning faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari (shakllanishi va rivojlanishi) faqat har tomonlama tizimli o'rganish asosida aniqlanishi mumkin. Ushbu holat korxonaning resurs salohiyatining terminologik bazasini aniqlashtirish, uni baholash va samarali ishlashiga yondashuvlarni asoslash zarurligini belgilaydi.

Xizmat ko'rsatish korxonasining resurs salohiyati konsepsiyasini ikki nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin: birinchi tomondan, bu miqdor va sifat xususiyatlariga ega bo'lgan moddiy va intellektual resurslar to'plami; ikkinchi tomondan, bu moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, boshqarish qobiliyati va mahoratidir. Korxonaning resurs salohiyati uning raqobatdagi muvaffaqiyatining ajralmas omilidir. Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonasining resurs salohiyatini ichki va tashqi tarkibiy qismlarga tasniflash mumkin (2-rasm).

Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatining tarkibiy qismlari quyidagilar asosida shakllanadi: tashkiliy salohiyat (boshqaruv tizimining korxonani samarali faoliyatini ta'minlash qobiliyati); moliyaviy-iqtisodiy salohiyat (korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati); ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) salohiyati (iqtisodiy resurslarning mavjudligi bilan belgilanadigan xizmat ko'rsatish imkoniyatlari majmui); marketing salohiyati (korxonaning yangi iste'molchilarni jalb qilish va mavjudlarini saqlab qolish qobiliyati orqali ifodalangan xizmatning iste'mol xususiyatlarining to'plami); mehnat (kadrlar) salohiyati (korxonada faoliyatida strategik maqsadlarga yerishish uchun xodimlarning imkoniyatlari yig'indisi); ilmiy-texnikaviy (innovation) salohiyat (yangi xizmatlarni ishlab chiqarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha korxonada faoliyatini); ijtimoiy salohiyat (insonning ijtimoiy ehtiyojlarini, masalan, tibbiy yordam, madaniy tadbirlar, dam olish va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni, masalan, moddiy yordamni taqdim etish qobiliyatini ta'minlash qobiliyati).

Korxonalarda resurs salohiyatini oshirish jarayoni bevosita resurslar (ishlab chiqarish omillari)dan samarali foydalanishni aniqlovchi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini integral baholash usuli resurslar qaytimi, korxonaning moliyaviy holati va faoliyati natijadorligi hamda resurs salohiyatining kompleks ko'rsatkichlarini alohida tasnifiy belgilari bo'yicha guruhlash asosida takomillashtirildi.

Xizmatlar samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlar, tashkiliy ko'rsatkichlar, ijtimoiy ko'rsatkichlar va individual-psixologik ko'rsatkichlarga tasniflash mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini aniqlash muammosiga turli uslubiy yondashuvlar mavjud bo'lib, xizmatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: resurslardan samarali foydalanish asosida xizmat ko'rsatish

samaradorligini oshirish va iste'molchilar talabini sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali to'liq qondirish; erishilgan natijalar va turli xil resurslarga qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbatning o'sishi orqali samaradorlikning oshishi; bozor subektlarini qanoatlantirish nuqtai nazaridan xizmatlar samaradorligi; maqsadga yo'naltirilganlik yondashuvi.

Muallif tomonidan, xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini tahlil qilish maqsadini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va resurs salohiyatini optimallashtirishga yo'naltirilgan korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash algoritmini joriy etishning blok-sxema modeli ishlab chiqildi. Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini baholashni amalga oshirish algoritmi mantiqiy ketma-ketlikda resurs salohiyatidan foydalanishni baholash usulining konseptual mohiyati bilan o'zaro bog'langan. Mazkur bloklar tavsifi quyidagilardan iborat: 1-blok. Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini baholash bo'yicha chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligi va o'z vaqtida bajarilishi tekshirib ko'riladi. 2-blok. Korxonaning missiyasi va maqsadlari, tahlil maqsadlari, resurs salohiyatini tashqi va ichki muhit omillari va atrof muhitga muvofiqligi tekshiriladi. 3-blok. Ushbu bosqichda resurs salohiyatidan foydalanishni tahlil qilishning bosqichma-bosqich rejasi ishlab chiqiladi. 4-blok. To'rtinchi bosqichda tahlilni amalga oshirish uchun xizmat ko'rsatish korxonasi mas'ul shaxslar tanlab olinadi va ular kasbiy darajasi va salohiyatidan kelib chiqib, resurs salohiyatining alohida salohiyat ko'rsatkichlarini tahlil qiladi. 5-blok. Korxonaning resurs salohiyatini tahlil qilish muddati aniqlanadi. 6-blok. Korxonaning resurs salohiyatidan foydalanishni tahlil qilish rejasini rasmiylashtirish jarayoni amalga oshirilib, bunda baholash muddatlari, ijrochilar, menejerlar, nazorat jarayoni va boshqalar ko'rsatiladi. 7-blok. Mazkur bosqichda korxonada boshqaruv qarorlarini amalga oshirish tashkil etiladi. 8-blok. Ushbu bosqichda resurs salohiyati tahlilini amalga oshirish uchun boshqaruv qarorlarini amalga oshirish sifatini baholash va tahlil qilish kerak. 9-blok. Ushbu bosqichda tushuntirish yozuvlari bilan barcha hisoblangan ma'lumotlar yagona hisobotga tuziladi, uning yuqori qismida resurs salohiyatining har bir komponentining baholashlari (darajalari) mavjud bo'lgan jadval tuziladi. 10-blok. Hisobotlarni tahlil qilish asosida rahbariyat uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va subpotensiallar darajasining o'ziga xos qiymatlaridan kelib chiqqan holda resurs salohiyatidan foydalanishning yakuniy darajasini belgilaydi. 11-blok. Olingan natijalarga ko'ra, mutaxassislar tomonidan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va salohiyatni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. 12-blok. 11-blokda ishlab chiqilgan tadbirlar amalga oshiriladi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi xo'jalik faoliyatini baholash uning tadbirkorlik faoliyati xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda ko'rsatkichlar to'plamini hisoblashni nazarda tutadi. Korxonaning resurs salohiyatining tarkibiy qismlarini taqqoslash uchun nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish zarur bo'lib, bu ularni omillar ta'siri natijasida yuzaga kelgan dinamik o'zgarishlarni taqqoslash imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish korxonasi xo'jalik faoliyatining natijaviy ko'rsatkichlarini baholashdan maqsad resurslarni tejash dasturini ishlab chiqish va korxonalarni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan o'zaro

bog'liq natijalar to'plamini olish imkonini beradi. Ushbu usul korxonada xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonasi resurs salohiyatini baholash integral ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Resurs komponentining agregasiyalangan ko'rsatkichi (A_{resj}):

$$A_{resj} = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}, \quad (1)$$

bu yerda: A_{resj} – resurs salohiyatining agregasiyalangan ko'rsatkichi;
 I_{ij} – faoliyat natijadorligi ko'rsatkichi indeksi;
 n – ko'rsatkichlar soni.

2. Biznes natijadorligining agregasiyalangan ko'rsatkichi ($A_{nat.bfj}$):

$$A_{nat.bfj} = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}, \quad (2)$$

bu yerda: $A_{nat.bfj}$ – biznes faoliyati natijadorligining agregasiyalangan ko'rsatkichi;

I_{ij} – faoliyat natijadorligi ko'rsatkichi indeksi;
 n – ko'rsatkichlar soni.

3. Resurs salohiyatining integral ko'rsatkichi

$$\Pi_j = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}, \quad (3)$$

bu yerda: Π_j – j – yil uchun integral ko'rsatkich;

I_{ij} – resurs salohiyatini baholash ko'rsatkichlari indeksi;
 n – ko'rsatkichlar soni.


Xizmat ko'rsatish korxonasida resurs salohiyatini baholashning taqdim etilgan ko'rsatkichlari zaruriy uslubiy vosita bo'lib, olingan baholash natijalari asosida sohada uning rivojlanish yo'nalishlarini kompleks tadqiq qilishga imkon beradi. Resurs salohiyatini ro'yobga chiqarish darajasini o'lchashga obektiv va kompleks yondashuvni ta'minlaydigan keng qamrovli baholash vositalarini shakllantirish korxonani rivojlantirish va samaradorligini oshirishda muhim uslubiy asos bo'lib hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining **“Buxoro viloyati xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida resurs salohiyati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati, xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholash usullari tadqiq qilingan.

Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'milashning muhim yunalishi hisoblanadi. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarilarini rivojlantirish zarurati kognitiv omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholi turmush darajasi, sifati va bandlik masalalarini hal qilishda muhim omildir. Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati sohaning tashqi omillar o'zgarishiga elastikligi, milliy mahsulotlarning ko'plab

turlariga ichki talabni oshirishi, kapital talabchanlikning pastligi, sohaga sarflangan xarajatlarning o'zini tez qoplashi, iste'mol bozorini barqaror rivojlanishiga ta'siri va yangi ish o'rinlari yaratishga xarajatlarning nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Buxoro viloyatida yalpi hududiy mahsulot va jami xizmatlar hajmining dinamikasi tahliliga e'tibor bersak, yalpi hududiy mahsulot hajmi 2019-yilda 27963,2 mlrd. so'mni, 2023-yilda esa 53232,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. Xizmat ko'rsatish hajmi esa ushbu davrlarda (2013 yil – 7826,5 mlrd. so'm, 2023 yil – 19294,1 mlrd. so'm) barqaror o'sish dinamikasiga ega bo'lgan va qariyb 2,5 martaga o'sgan. Xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining YaHMdagi ulushi 2019-yilda 28,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 36,2 % bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, xizmatlar sohasi ustuvor rivojlanayotgan tarmoqlarga ega bo'lgan sektor bo'lib hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Buxoro viloyatida yalpi hududiy mahsulot va jami xizmatlar hajmining dinamikasi⁹

Tadqiqotning keying bosqichida Buxoro viloyatida jami xizmatlar hajmi 2023 yilda 19294,1 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019 yilga nisbatan 2,3 martaga o'sgan. Viloyatda 2019-2023-yillarda yuqori o'sish so'ratlari moliyaviy xizmatlar (3,4 marta), ta'lim xizmatlari (2,7 marta), shaxsiy xizmatlar (2,6 marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,5 marta), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2,3 marta), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,2 marta), savdo xizmatlari (2,1 marta) tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (154,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (108,0%) nisbatan pastroq o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Bugungi kunda resurslarni tahlil qilish har qanday korxonada va tashkilotning faoliyatida muhim jihat hisoblanadi. Buning sababi korxonaning resurs salohiyatini oshirish va resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli

⁹ Manba: Buxoro viloyati Davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

qarorni o‘z vaqtida aniqlash, tahlil qilish va qabul qilish korxonalar va tashkilotlarda iqtisodiy o‘rinish va barqaror rivojlanish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, Buxoro viloyati xizmat ko‘rsatish sohasida tanlab olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil etish asosida resurslardan samarali foydalanishni tahlil qilish jarayoniga e‘tibor qaratish zarur.

1-jadval

Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalarini va tashkilotlarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so‘m)¹⁰

№	Korxonalar nomi	Yillar					2019-2023 y.y.da o‘zgarish, %
		2019	2020	2021	2022	2023	
1.	“O‘zbekinvest” AJ	25462,1	20490,3	26521,4	27389,2	31530,8	123,8
2.	“O‘zagrosug‘urta” AJ	11525,9	9100,7	15128,1	16169,9	17144,0	148,7
3.	“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki	20978,5	15244,7	29803,2	42916,8	59051,7	2,8 marta
4.	“Agrobank” ATB	68947,2	77150,2	79264,2	84555,8	93365,4	135,4
5.	“Kapital bank” ATB	158754,2	150428,5	270224,3	283058,4	295451,9	186,1
6.	“Uzjamoaloyiha” MChJ	3631,9	2777,6	3945,9	4198,2	6621,4	182,3
7.	“Old Bukhara” MChJ	2566,8	1558,5	4244,8	5466,1	6278,4	2,4 marta

1-jadvalda keltirilgan tahliliy ma‘lumotlarga nazar solsak, Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalarini va tashkilotlarida 2019-2023 yillarda ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi bo‘yicha yuqori o‘rinish sur‘atlari “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat bankida – 2,8 marta, “Old Bukhara” MChJda – 2,4 marta, “Kapital bank” ATBda – 186,1 %, “Uzjamoaloyiha” MChJda – 182,3 %ga oshgan. Shuningdek, qolgan xizmat qolgan tahlil qilingan korxonalar va tashkilotlarda nisbatan barqaror o‘rinish sur‘atlariga ega bo‘lgan.

2-jadval

Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari¹¹


№	Korxonalar nomi	Mehnat unumdorligi, mln. so‘m		2022 yilga nisbatan o‘zgarish, (%)	Fondlar bilan qurollanish darajasi, mln. so‘m		2022 yilga nisbatan o‘zgarishi, (%)	O‘z mablag‘larining asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligi, so‘m		2022 yilga nisbatan o‘zgarishi, (%)
		2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.	

¹⁰ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

¹¹ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

1.	“O‘zbekinvest” AJ	652,1	733,3	112,0	1095,6	1261,2	115,0	2,41	2,46	102,0
2.	“O‘zagrosug‘urta” AJ	367,5	381,0	103,0	613,7	640,0	104,0	2,47	2,44	98,0
3.	“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovasiya tijorat banki	613,1	738,1	120,0	919,6	1144,1	124,0	2,01	2,08	103,0
4.	“Agrobank” ATB	393,3	424,4	107,0	609,6	662,0	108,0	2,08	2,09	100,0
5.	“Kapital bank” ATB	1360,9	1355,3	99,0	1918,8	1924,5	100,0	1,90	1,91	100,0
6.	“Uzjamoaloyiha” MChJ	139,9	189,2	135,0	167,9	230,8	137,0	1,61	1,64	101,0
7.	“Old Bukhara” MChJ	227,8	232,5	102,0	649,1	669,7	103,0	3,73	3,72	99,0

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish mehnat samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahliliga ko‘ra, 2023-yilda mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan xo‘jalik subektlari sifatida “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovasiya tijorat bankida – 738,1 mln. so‘m, “Kapital bank” ATBda – 1355,3 mln. so‘m, “O‘zbekinvest” AJda – 733,3 mln. so‘m, “Agrobank” ATBda – 424,4 mln. so‘m, “O‘zagrosug‘urta” AJda – 381,0 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2023-yilda fondlar bilan qurollanish darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich “Kapital bank” ATB (1924,5 mln. so‘m), “O‘zbekinvest” AJ (1261,2 mln. so‘m), “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovasiya tijorat banki (1144,1 mln. so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2023-yilda o‘z mablag‘larining asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligi ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich “Old Bukhara” MChJda – 3,72 so‘m, “O‘zbekinvest” AJ – 2,46 so‘m, “O‘zagrosug‘urta” AJ – 2,44 so‘m, “Agrobank” ATB – 2,09 so‘m, “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovasiya tijorat banki – 2,08 so‘mni tashkil etgan (2-jadval).



4-rasm. Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning mehnat samaradorligi.

Ushbu ko‘rsatkichlar xizmat ko‘rsatish korxonasining tasarrufida bo‘lgan iqtisodiy, tabiiy, pul va mehnat resurslaridan qanchalik samarali foydalanishini ifodalaydi. Rentabellik korxonada xizmatlarni ko‘rsatish xarajatlarini qoplash uchun xizmatlarni realizatsiya qilishdan qancha tushum olish kerakligini ko‘rsatadi. Barcha ishlab chiqarish xarajatlaridan keyin foyda qolgan taqdirda korxonalar rentabelli hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko‘p miqdorda ekanligi bilan tavsiflanadi hamda ularning faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillar bilan belgilanadi. Natijada sohada o‘zining yo‘nalishi, faoliyat hajmi, mavjud va potensial resurslari va uning salohiyatiga ko‘ra, ajralib turuvchi korxonalar rivojlanishi aniq me‘yorlarning amal qilishi bilan cheklanadi va bu me‘yorlar investisiyalarni joriy etish ko‘lamini belgilab beradi.

3-jadval


Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari¹²

№	Korxonalar nomi	Mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi %		2022 yilga nisbatan o‘zgarishi, (%)	Asosiy fondlar rentabelligi, %		2022 yilga nisbatan o‘zgarishi, (%)	Korxonalar absolyut likvidligi, koeffitsient		2022 yilga nisbatan o‘zgarishi, (%)
		2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.	
1.	“O‘zbekinvest” AJ	3,5	3,6	102,8	1,7	1,7	100,0	0,21	0,22	104,0
2.	“O‘zagrosug‘urta” AJ	3,5	3,6	102,8	1,7	1,7	100,0	0,20	0,22	110,0
3.	“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki	3,9	3,9	100,0	2,1	2,0	95,0	0,26	0,27	103,0
4.	“Agrobank” ATB	3,9	4,0	102,0	2,0	2,0	100,0	0,27	0,28	103,0
5.	“Kapital bank” ATB	4,0	4,1	102,0	2,3	2,3	100,0	0,28	0,30	107,0
6.	“Uzjamaloyiha” MChJ	4,5	4,7	104,0	3,0	3,0	100,0	0,25	0,26	104,0
7.	“Old Bukhara” MChJ	5,6	5,7	101,0	1,5	1,6	106,0	0,28	0,30	107,0

Tadqiqotning keyingi bosqichida Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarda 2023-yilda mahsulot

¹² Jadvalda keltirilgan korxonalar yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

(xizmat) sotish rentabelligi “Old Bukhara” MChJ (5,7%), “Uzjamoaloyiha” MChJ (4,7%) va “Kapital bank” ATB (4,1%) va “Agrobank” ATB (4,0) da yuqoriroq natijaga erishilgan. 2023-yilda asosiy fondlar rentabelligi “Uzjamoaloyiha” MChJ (3,0%), “Kapital bank” ATB (2,3%), “Ipak Yo’li” aksiyadorlik innovasiya tijorat banki (2,0%) va “Agrobank” ATB (2,0%) da yuqoriroq bo’lgan. Viloyatida xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarda absolyut likvidlik ko’rsatkichi “Old Bukhara” MChJ (0,30), “Kapital bank” ATB (0,30) va “Agrobank” ATB (0,28) da yuqori koeffisientda bo’lgan (3-jadval).



5-rasm. Buxoro viloyatida xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligi.

Shunga ko’ra, xizmat ko’rsatish sohasida alohida xo’jalik subektlarining oldiga qo’ygan maqsadlariga o’z vaqtida erishish zarur. Chunki, hozirgi kunda butun dunyoda ilmiy-texnik taraqqiyotning uzluksiz ravishda jadallashuvi xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan xo’jalik subektlarining ham iqtisodiy samaradorligini oshirish, ham ularda investisiyalarni joriy qilish vaqtini qisqartirish va jozibadorligini oshirish muammosini hal qilishni zarurat etadi.

Hozirgi sharoitda xizmat ko’rsatish korxonasining birinchi darajali maqsadi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Mehnat resurslaridan rasional foydalanish yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlarga erishishni yuzaga keltiradi. Korxonada o’tkazilayotgan kadrlar siyosati natijalarini baholash uchun mezonlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Xizmat ko’rsatish korxonalarida personalni boshqarishni samarali mexanizmining asosiy mezonlari uning bazasida ijtimoiy va iqtisodiy ko’rsatkichlarga muvofiq aloqadorlikda bo’lishi zarur. Ko’rsatkichlarning bunday aloqadorlik tizimi nafaqat uning sarflar bilan taqqoslash va natijalarning shakllanishi jarayonida har bir omil rolini aniqlashni, balki korxonaning kadrlar siyosatida ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash imkonini beradi hamda

rivojlanishning strategik masalalarini hal etishda to'g'ri variantni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi ishchi-xodimlar mehnati bilan bevosita bog'liq xarajatlarni baholashda nafaqat ish haqi summasi, balki mukofotlar, bonuslar, moddiy yordam, hisoblangan va ichki jarimalar hamda personalni baholash natijalari bo'yicha motivasiyalashning nomoddiy shakllarini ham baholash kerak.

Personalga xarajatlarning umumiy o'zgarishini zanjirli almashtirish usuli orqali omilli tahlil bajarilishi metodikasi bilan muvofiqlikda har bir to'rt omil hisobiga o'zgarishlar summasidan kelib chiqishi kerak. Shunday ekan, xarajatlarning summasi oshishi yoki kamayishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Y = \Delta Y_a + \Delta Y_b + \Delta Y_c + \Delta Y_d, \quad (4)$$

bu yerda: ΔY_a – personalni boshqarish tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning hisobiga personalga qilinadigan xarajatlarning o'zgarishi; ΔY_b – bitta xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasining o'rtacha miqdori o'zgarishi hisobiga personalga xarajatlarning o'zgarishi; ΔY_c – xizmatlar mehnat sig'imining o'zgarishi hisobiga personalga xarajatlarning o'zgarishi; ΔY_d – hisobot davrida tushum hajmini o'zgarishi hisobiga personalga qilinadigan xarajatlarning o'zgarishi.

